

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
“Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari” fakulteti

REFERAT

**Mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot
yo'li**

Topshirdi: Teginabonu Jamolhoji
Qabul qildi: Bashoratxon Mamarahimova
Guruh: *yapon-ingliz*

Toshkent-2011

REJA:

1. Biz qo'lga kiritgan Mustaqillik
2. Milliy taraqqiyotning o'zbek modeli
3. Mustaqil taraqqiyot yo'limizning jahonga yoyilishi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tarixda hech bir xalq yoki millat o'z ozodligi va mustaqilligini osonlik bilan qo'lga kiritmagan. Buni jaxon tarixi jumladan, yurtimiz tarixi ham isbotlaydi. Bizning ajdodlarimiz, ota – bobolarimiz qadim tariximiz davomida necha bor yovuz bosqinchilar xujumiga duch kelib, vatanimiz ozodligi uchun kurash olib borganlar. Masalan, To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Mahmud Tarobiy, Amir Temur singari mard va bahodir sarkardalarimiz boshchiligida yovlarga qarshi qilingan jangu jadallar so'nggi 130 yildan ortiqroq davom etgan istibdod davridagi ozodlik kurashlari jaded bobolarimizning xalqimizni jaholat va mustamlakachilik domidan xalos etish yo'lidagi ma'rifiy harakatlari bu fikrning tastig'idir.

Yoki o'tgan asrning 80 – yillari ikkinchi yarmidan boshlab Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligida yurtimizda adolat mustaqillik tinch – osuda hayot uchun olib borilgan mardona harakatlar milliy ozodlik yo'lidagi kurashlarning yorqin sahifasini tashkil etadi.

Bularning barchasi istiqlool bugungi ozod va erkin hayot musaffo osmon o'z – o'zidan kelmagani, ular asrlar davomida olib borilgan kurashlar mahsuli ekanidan dalolat beradi.

Ma'lumki, jonajon vatanimiz jahon madaniyatiga buyuk va beqiyos xissa qo'shgan ulug' allomalar, aziz- avliyolar, mohir sarkarda va davlat arboblari bilan ham ma'lumu mashxurdir.

Mustaqil yurtimiz zaminining shu jihatdan benihoya muqaddasligi haqida Prezidentimiz Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlab aytgan edi: “ Bugun umrini iymon va etiqod vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va halollik , ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar hoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, xar qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi ”.

Bunday buyuklarga beshik bo'lgan yurt, ularni o'z bag'rida voyaga yetkazgan xalqimiz tabarruk zaminni ko'z qorachig'idek asrashga, unga tajovuz qilmoqchi bo'lgan xar qanday bosqinchi kuchlarga zarba berishga qodir mard va bahodir insonlarni ham tarix maydoniga chiqardi. Qadimiy Turon bahodiri Alp Erto'nga, Yunon qo'shinlarga qarshi kurashgan Spitamen mo'g'ul bosqinchilariga qaqshatgich zarbalar

bergan. Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi yurtimiz hududida buyuk davlat barpo etgan Amir Temur va Temuriylar sulolasiga mansub ajdodlarimiz xalqimizning nomini shonu sharafiga burkagan ulug' zotlardir.

Bu haqida so'z borganda, o'tgan asrning boshlarida chorizm bosqiniga qarshi ma'rifiy yo'li bilan ozodlik uchun kurash olib brogan jadid bobolarimizning xizmatlari ham beqiyosdir. Ular nafaqat mustamlakachikka balki jaholatga sho'ro tuzumiga mamuriy – buyruqbozlikka asoslangan siyosatiga ham qarshi kurashib o'z jonlarini fido etdilar. Ziyolilarimizning katta qismi 20, 30, 50-yillarda ozodlikka, mustaqilikka intilganlari bois qatag'on qilindilar.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritish uchun haqiqiy kurash 1989 yildan boshlandi.

Birinchi sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi va 1991 yildan boshlab bu kun umumxalq bayrami va dam olish kuni sifatida mamlakatimizda keng nishonlanib kelmoqda. Shuningdek Oliy Kengashning sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi qonun qabul qilindi. 17 moddadan iborat ushbu qonunning birinchi moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlatdir", deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanining huquqiy ifodasi edi.

Tarixiy orzu ushaldi. Xalqimiz siyosiy mutelik va asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasi bo'ldi. O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligini quvonch bilan kutib oldi.

Istiqlolimiz va uning 20 yillik shonli yo'li xalqimiz uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Prezidentimiz Islom Karimov tabiri bilan aytilgan "Biz uchun mustaqillik – Alloxning o'zi el yurtimizga in'om etgan tabiiy boyliklarga egalik qilish xalqimiz qudrati, salohiyati, aqlu zakovatiga tayanib, O'zbekistonda yashayotgan har bir inson, har bir oila uchun hayot qurish, kelajak avlodlar uchun ozod va obod vatan qoldirishdir".

Istiqlol – millatimiz, mamlakatimizning jahonda obro’- e’tibori , shon shavkatini dunyoga tarannum etadigan sog’ lom avlodni, har jihatdan barkamol va fidoyi o’g’il qizlarni tarbiyalash ularni voyaga yetkazish va baxtini ko’rish imkoniyatini yaratdi. Har bir fuqaromiz uchun – millati, irqi va diniy e’tiqotidan qat’iy nazar farovon hayot kechirish kafolatkari ta’minlanmoqdav

2. Mustaqillik tufayli biz o’zligimizni angladik, ozod xalq va mustaqil davlat sifatida O’zbekistoninig bor bo’y- bastini ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoni tug’ildi. Ozodlik bois bizni jahon tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning g’ayrati, azmu shijoati ila vatanimizning shon -shuhrati olam uzra yanada kengroq yoyilmoqda. Hurriyat bergan beqiyos imkoniyatlar negizida ertangi kunimiz – erkin va farovon kelajagimizni o’z qo’limiz bilan bunyod etmoqdamiz .

“ O’tgan davrning har bir yilini ahamiyati jihatidan tariximizning 10 yilliklariga xatto asrlarga tenglashtirish mumkin, desak, mubolag’a bo’lmaydi” Islom Karimov.

1991 yil 31 avgustda qabul qilingan “ Davlat mustaqilligi to’g’risida ” gi qonun O’zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining huquqiy asosi bo’lib xizmat qildi. Ana shu kundan boshlab O’zbekistonninig suveren davlat sifatida qaror topishi va rivojlanishida yangi davr boshlandi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimiz o’z mustaqil taraqqiyotining 20 yilligini nishonlandi. Tarix oldida bu muddat kiprik qoqqanchalik lahzalarga teng davr hisobkanadi. O’tgan 20 yil mohiyatdan yurtimiz tarixida o’ta mas’uliyatli va sharaflı davr bo’ldi. Har birimizning hayotimizda mamlakatimiz taqdirida muhim va olamshumul o’zgarishlar yuz berdi.

Qisqa davr ichida davlat va jamiyat qurilishida huquqiy- siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy sohalarda ulkan yutuqlar qo’lga kiritildi, eng muhimi, odamlarimizning ongu shuurida tom ma’noda yangicha qarash va yangicha fikrlash asoslari shakllandi.

Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan yurtimizda ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar boshlab yuborildi. Istiqlolimizning ilk yillaridan boshlab yurtboshimiz yuksak demokratik talablarni hayotimizga to’liq joriy etish

fuqarolik jamiyati barpo etish farovon hayotga erishish bir – bilan chambarchas bog'liq va uzkuksiz davom etadigan jarayon ekanini ta'kidlab bunday darajaga ko'tarilish hech qachon osonlikcha kechmasligini uqtirib o'tgan edi. Islom Karimov “ O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li ” risolasida mamlakatimiz mustaqilikka erishganidan keyingi yo'llaridagi rivojlanish jarayonlarini tahlil qilib , O'zbekistonda davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining o'zagi sifatida 5 ta asosiy tamoyilni belgilab berdi. Nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bu dastur uzoqni o'ylab tuzilgan bo'lib sobiq mustabid tizimi illatlarini tezroq bartaraf etish mamlakatimizning rivojlangan, madaniyatli davlatlar darajasiga chiqib olishini ta'minlashni ko'zda tutar edi. Bu, haqiqatdan ham, Prezidentimiz nomi bilan jahonga tanilgan taraqqiyotning o'zbek modeli edi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

1. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak
2. O'tish davrida davlat bosh islohatchi bo'lishi lozim.
3. Qonun ustuvorligiga erishish qonunlarga qat'iy rioya etish.
4. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish kerak.
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotning obyektiv qonunlarini etiborga olib yaqin o'tmishdagi “ inqilobiy sakrashlar ” siz, ya'ni evolutsion yo'l bilan puxta o'ylab bosqichma – bosqich amala oshirilishi kerak.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirishni evolutsion yo'lining tanlab olingani o'zining an'anaviy og'ir – bosiqqligi puxta o'ylab qaror qabul qilishga ruhan moyilligi hamda tinchliksevarligi tufayli bir holatdan ikkinchisiga shoshma- shosharlik bilan o'tishga odatlanmagan

3. Bugun ko'pchik tomonidan bir haqiqat tan olinganki, taraqqiyotning o'zbek modeliga xos prinsipial xususiyat unda o'tish davrining murakkab vazifalarini maqbul tarzda hal etishning strategiyasi va taktikasi chuqur asoslab berilganida namoyon bo'ladi. Yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli bugungi jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida ham

o'zining to'g'ri va har tomonlama samarali ekanini isbotladi. Buni dunyodagi taniqli iqtisodchilar davlat arboblari va mohir siyosatchilar ham e'tirof etishmoqda. Ular tomonidan O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti hamda inqiroz oqibatlarini bartaraf etish borasida olib borayotgan izchil chora tadbirlari hfr tomonlama va teran tahlillar orqali o'rganib chiqilmoqda. Mazkur modelning moliyaviy inqirozni boshidan kechirayotgan davlatlar uchun tadbiriq etilishi mumkinligini ta'kidlamogdalar.

2009 yilning oktabrida yurtimizga tashrif buyurgan xalqaro valyuta jamg'armasi ijrochi direktorlari missiyasining bayonotida jumladan shunday deyiladi "O'zbekiston xukumati jaxon iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiy o'sishni taminlash uchun zarur bo'lgan ko'plab resurslarni jamlagan xolda jaxon moliya bozorlarida oqilona siyosat olib bordi Bunday puxta o'ylangan siyosat mamlakatning global iqtisodiy inqiroz tasiriga samarali qarshi tura olishida muxim omil bo'ldi"

SHuning bilan birga 2010 yilning 1-4 may kunlari Toshkentda o'tkazilgan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Boshqaruvchilar kengashining 43-yillik majlisida ishtirok etgan Jaxon bankining Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori Moto Konishining ham so'zlarini keltirish mumkin "Menga ayniqsa davlatingiz raxbarining istiqlol yillarida "Yangiuy qurmasdan turib eskisini buzmand "degan xayotiy tamoyilga amal qilib ish tutgani juda maqul bo'ldi Ushbu tamoyilga asoslanib yuritilayotgan ijtimoiy –iqtisodiy siyosat samarasi o'laroq bugun O'zbekistonning jahon miqyosidagi nufuzi tobora yuksalib bormogda» («Ozbekiston ovozi» 2010 yil 6 may)